XALQ DEPUTATLARI MUBORAK TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 11-may VI-67-69-4-64-K/24 Muborak tumani

Tumandagi geografik obyektlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyetklarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining “Qashqadaryo viloyati Muborak tumanidagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash” to‘g‘risida 2022-yil 21-dekabr kunidagi 01292-sonli yig‘ilish bayoni va ekspert xulosasi ijrosini ta’minlash yuzasidan geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman hokimi maslahatchisi H.Elovning taklifiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Muborak tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyetklarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish eksport komissiyasining “Qashqadaryo viloyati Muborak tumanidagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash” to‘g‘risida 2022-yil 21-dekabr kunidagi 01292-sonli yig‘ilish bayoni va ekspert xulosasiga asosan, Muborak tumani “Konchilar” mahalla fuqarolar yig‘ini hamda “Yoshlik” mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan qabristonlar nomlarini tasdiqlab berish to‘g‘risidagi Muborak tuman hokimining maslahatchisi H.Elovning 2024-yil 6-martdagi 15/301-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyetklarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish eksport komissiyasining “Qashqadaryo viloyati Muborak tumanidagi feografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash” to‘g‘risida 2022-yil 21-dekabr kunidagi 01292-sonli yig‘ilish bayoni va ekspert xulosasiga asosan Muborak shahri “Konchilar” mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan qabristonga “Abadiyat” nomi

hamda “Yoshlik” mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan qabristonga “Cho‘lquvar” nomlarini berish to‘g‘risidagi viloyat komissiyasining taklifi ma’qullansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (N.Abdinazarov), tuman hokimining maslahatchisi (H.Elov)ga tumandagi geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish qoidalari asosida normallashtirish ishlari bajarilishi bo`yicha har chorakda Xalq deputatlari tuman Kengashida axborot berib borish yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosari (N.Abdinazarov), nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi**.**

Sessiya raisi PARPIYEVA ALIME TASHBAYEVNA